UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA INTEGRATSIYAVIY YONDASHUV

Abduvaliyeva M.A.,
Guliston davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi e-mail: mashhuraabduvaliyeva123@gmail.com
Qodirqulova G.S.,
Guliston davlat pedagogika instituti
talabasi Email: gulshodaqodirova2006@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik mahoratni rivojlantirishda innovatsion klaster modelining ahamiyati hamda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish masalalari yoritilgan. Maqolada klasterning asosiy ustunliklari – ta’lim va metodikaning uyg‘unligi, ilmiy-amaliy integratsiya, zamonaviy kadrlar tayyorlash va hududiy tenglikni ta’minlash bo‘yicha fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogika, klaster, innovatsiya, xorij tajribasi, ta’lim, metodika, raqamli texnologiya, integratsiya, kadrlar, sifat.

Abstract: this article discusses the importance of the innovative cluster model in the development of pedagogical skills and the use of advanced foreign experiences. The article puts forward ideas on the main advantages of the cluster - the harmony of education and methodology, scientific and practical integration, modern personnel training and ensuring territorial equality.

Keywords: pedagogy, cluster, innovation, foreign experience, education, methodology, digital technology, integration, personnel, quality.

O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi davlat, jamiyat va shaxsning ilmiy, texnikaviy, madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda ustuvor ahamiyatga ega soha hisoblanadi. Bu tizim ijodkor, ijtimoiy faol va ma’naviy boy shaxsni shakllantirish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. [1]

Uzluksiz ta’lim jarayoni insonning har tomonlama kamol topishi uchun eng muhim davr sanaladi. Bu davrda shaxs fan asoslari, kasb-hunar bilimlarini o‘zlashtiradi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga ega, keng dunyoqarashli va malakali kadr sifatida shakllanadi. Ta’lim va tarbiya insonning borliqni anglash, doimiy o‘zgarayotgan dunyoga moslashish, jamiyatni insonparvarlashtirish jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi. Har qanday davlatning taraqqiyot darajasi, aynan, uning ta’lim tizimining holati bilan belgilanadi. [2]

Bugungi kunda O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

Maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim.So‘nggi yillarda ta’lim tizimining har bir bosqichida izchil islohotlar amalga oshirilib, ularni tarixiy jihatdan qisqa davr ichida erishilgan misli ko‘rilmagan yutuqlar sifatida baholash mumkin. Ammo har qanday yutuq yangi muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Jumladan, 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim, akademik litsey va texnikumlar tizimi shakllangan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro uzviyligi va izchilligi yetarli darajada ta’minlanmagan. [3]

Bugungi kunda quyidagi muammolar uzluksiz ta’lim tizimida mavjud:

- Maktabga ilk bor kelgan o‘quvchilar fan dasturlarini o‘zlashtirishda qiynalmoqda;
- Boshlang‘ich sinflarda a’lochi bo‘lgan o‘quvchilar yuqori sinflarda past ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishmoqda; o‘quvchilar kasb tanlashda mustaqil qaror qabul qilishda qiynalishmoqda; oliy ta’limni tugatgan yoshlar ishga joylashishda muammolarga duch kelmoqda.

Bunday holatlar, asosan, ta’lim bosqichlari o‘rtasida uzviylikning yetarli darajada ta’minlanmaganligini ko‘rsatadi. Fan dasturlarining mazmuni, mavzular ketma-ketligi va metodik yondashuvlar bir-biridan uzilgan. Ayrim mavzular takror-takror berilishi, nazariy bilimlarga haddan ortiq e’tibor qaratilishi, amaliy va tanqidiy fikrlashga kam o‘rin ajratilishi ta’lim sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. [4]

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki: Mavzularning 10–15 foizi turli bosqichlarda takror beriladi, 50–60 foiz mavzularda uzviylik yo‘q, o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqti ortiqcha va samarasiz mashg‘ulotlarga sarflanmoqda. [5]

Mazkur holatlarni bartaraf etish maqsadida 2020-yilda Prezident Administratsiyasi tomonidan kompleks “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Unda fan dasturlarining mazmuni, mavzular ketma-ketligi, bilim va ko‘nikmalar darajasini aniq belgilash bo‘yicha vazifalar belgilanib, tegishli vazirlik va idoralarga muayyan topshiriqlar yuklatildi. [6]

Pedagogik ta’lim innovatsion klaster tizimiga o‘tish zaruriyati:

Ta’lim tizimidagi uzviylik va innovatsion yondashuvlar asosida pedagogik ta’lim klaster tizimiga o‘tkazilishi zarurati tug‘ilmoqda. Bunday tizim maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, oliy va qo‘shimcha ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, metodik markazlar va amaliyot bazalarini birlashtirib, uzluksiz pedagogik ta’limda sifat jihatdan yangi bosqichga chiqish imkonini beradi. [7]

Klaster tizimi quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- zamonaviy, raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi pedagoglarni tayyorlash;
- ta’lim mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- o‘quv-metodik materiallar sifati va yangilanishini ta’minlash;
- uzluksiz ta’lim bosqichlari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish.

Takliflar: Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Har bir ta’lim bosqichi uchun fan dasturlarining mazmunini izchil tahlil qilish va uzviylikni ta’minlash.

2. Mavzular takrorlanishining oldini olish, fanlar bo‘yicha dars soatlarini maqbullashtirish.

3. Nazariy bilimlar bilan birga amaliy va interfaol metodikalarni keng joriy etish.

4. Pedagogik kadrlar tayyorlovchi muassasalarda ilmiy-innovatsion klaster tizimini yo‘lga qo‘yish.

5. Xalqaro ta’lim standartlarini mahalliy sharoitga moslashtirish asosida fan va dasturlarni takomillashtirish.

Shunday qilib, uzluksiz ta’lim tizimidagi uzviylikni ta’minlash O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lidagi eng muhim vazifalaridan biridir. [8,9]

– pedagogik oliy ta’lim muassasalari qoshida tashkil etilgan innovatsion markazlar, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, metodik markazlar hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha eksperimental platformalar;

– xalqaro hamkorlik asosida faoliyat yuritayotgan ta’lim markazlari, xorijiy oliy o‘quv yurtlarining filiallari, qo‘shma dasturlar asosida ishlayotgan pedagogik yo‘nalishdagi akademik hamkorlik loyihalari;

– pedagogik kadrlar malakasini oshirish va ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalariga tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi milliy va xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO, UNICEF kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan qo‘shma tashabbuslar;

– nodavlat notijorat tashkilotlari, ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi fuqarolik jamiyati institutlari, innovatsion fikrlar va loyihalarni qo‘llab-quvvatlovchi grant dasturlari;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta’lim resurslarini ishlab chiqayotgan IT-kompaniyalar, raqamli platformalar, elektron darsliklar, masofaviy ta’lim tizimlari va sun’iy intellekt asosida ishlovchi ta’limiy tizimlar. Shu tarzda tashkil etilgan pedagogik klaster modeli o‘zaro integratsiyalashgan va funksional jihatdan uyg‘un faoliyat yurituvchi tizim sifatida qaraladi. Bu tizimning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat: 1. Ta’lim mazmuni va metodikasi uyg‘unligi – barcha bosqichlar uchun yagona yondashuv asosida fan dasturlarining izchilligi ta’minlanadi.2. Ilmiy va amaliyotning yaqinligi – ilmiy tadqiqot natijalari amaliyotga tezda tatbiq qilinib, zamonaviy innovatsion uslublar bilan boyitiladi.3. Kadrlar salohiyatining uzluksiz rivoji – pedagoglar uchun doimiy malaka oshirish, zamonaviy yondashuvlarga mos o‘qitish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi muhit yaratiladi.4. Raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash – xalqaro standartlarga mos bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lgan, raqamli va innovatsion texnologiyalarni puxta egallagan pedagog kadrlar yetishtiriladi.5. Hududiy va ijtimoiy tenglikni ta’minlash – klaster modeli orqali barcha hududlarda bir xil sifatli ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish imkoniyati kengayadi.[10]

Pedagogik mahoratni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Mazkur maqolada ko‘rib chiqilgan innovatsion klaster modeli nafaqat ta’lim jarayonining mazmunini boyitadi, balki ilm-fan, amaliyot va texnologiyalar integratsiyasini ta’minlab, zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Finlyandiya, Janubiy Koreya va Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim tizimida ilg‘or texnologiyalar, sun’iy intellekt, o‘quvchi markazlashgan yondashuv, o‘quv dasturlarini erkin va individual loyihalash pedagogik sifatni oshirishda muhim vositalardir.

O‘zbekistonda ham klaster asosida faoliyat yurituvchi pedagogik markazlarni tashkil etish orqali hududiy tenglik, o‘qituvchilar malakasini oshirish, amaliy va nazariy bilimlarning uyg‘unligini ta’minlash imkoniyati mavjud. Innovatsion klaster modeli yordamida o‘qituvchilar yangi metodik yondashuvlarni o‘zlashtiradi, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga tayyor bo‘ladi va ta’lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish va o‘qituvchilarni doimiy professional rivojlantirish uchun zamin yaratiladi. Umuman olganda, pedagogik ta’limda klaster tizimini joriy etish – bu raqobatbardosh, ilg‘or fikrlaydigan va innovatsion salohiyatga ega pedagoglarni yetishtirishning asosiy garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қурбонова М.У. “Педагогик инновациялар ва таълимда интегратив ёндашувлар”. – Тошкент: Фан, 2021.

2. Ўзбекистон Республикаси Таълим тўғрисидаги Қонуни. – Тошкент: Адлия нашриёти, 2020.

3. Жонебекова Ш.А. “Узлуксиз таълим тизимида замонавий технологиялардан фойдаланиш”. – Самарқанд: 2022.

4. Ахмедова Д.А. “Инновацион таълим моделлари ва уларни жорий этиш йўналишлари”. // “Таълим ва инновация” журнали, 2023, №2.

5. Fullan, M. "The New Meaning of Educational Change". – New York: Teachers College Press, 2016.

6. UNESCO. "Futures of Education: Learning to Become" – Global Education Report, 2021.